O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BUVRAYEV ERALI RAVSHANOVICH

BA’ZI 3d-METALLARINING AYRIM VITAMINLAR VA AMINOKISLOTALAR BILAN ARALASH LIGANDLI KOMPLEKS BIRIKMALARI: SINTEZI, XOSSALARI, QO‘LLANILISHI

02.00.01 – Noorganik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

UO‘K: 546.62:547.96:547.472:543.42

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in chemical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BUVRAYEV ERALI RAVSHANOVICH

BA’ZI 3d-METALlARINING AYRIM VITAMINLAR VA AMINOKISLOTALAR BILAN ARALASH LIGANDLI KOMPLEKS BIRIKMALARI: SINTEZI, XOSSALARI, QO‘LLANILISHI

02.00.01 – Noorganik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/K386 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingiliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-kimyo.nuu.uz) va"Ziyonet" Axborot-talim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy Rahbar:	**Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna** Kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kadirova Zuxra Chingizovna** Kimyo fanlari doktori, professor
	Ibodullova Mavjuda Ibodulloevna Kimyo fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «23» avgust soat 10^{30} dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (998 71) 227-12-24; faks (+998 71) 246-53-21, (98 71) 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuuu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№126 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (998 71) 227-12-24, faks (+998 71) 246-53-21, (998 71) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «12» avgust kun tarqatildi.
(2025-yil «11» avgust dagi 18 raqamli reestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

Sh.Sh.Daminova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiyaning dolzarbligi va zarurati. Dunyoda biofaol ligandlar ishtirokidagi gomoligandli va geteroligandli kompleks birikmalar asosida yaratilgan preparatlar tibbiyotda turli xil kasalliklarni davolashda, qishloq xoʻjaligida esa biostimulyator, fungitsid va gerbitsid sifatida samarali qoʻllanilmoqda. Ayniqsa vitaminlar va aminokislotalar bilan kompleks birikmalarining sinergizm hodisasi tufayli, tibbiyotda onkologik, infektsion va yalligʻlanishli kasalliklarga qarshi dori vositalari olishda muhim oʻrin egallaydi. Xususan, soʻnggi yillarda sintez qilinayotgan Co(II), Ni(II), Cu(II) hamda Zn(II) metall komplekslarining saraton hujayralari bilan selektiv bogʻlanishi va ularning hayotiy siklini izdan chiqarish xususiyati tufayli bunday birikmalarni sintez qilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda metall komplekslarning sintez metodikalari, ularning kimyoviy tarkibi, molekulyar va fazoviy tuzilishilari, koordinatsiyalanish xususiyatlari va ligandlar bilan bogʻlanish tartibi, kompleks hosil boʻlishining termodinamik va kinetik qonuniyatlari, reaksiya sharoitlariga bogʻliq holda tuzilishdagi oʻzgarishlar, ularning spektroskopik, elektrokimyoviy va magnit xossalari, kristall strukturasini aniqlashga oid zamonaviy usullar, shuningdek, komplekslarning biologik faolligi va funksional xossalari, tibbiyot, qishloq xoʻjaligi, materialshunoslik kabi sohalardagi qoʻllanilish imkoniyatlari, hamda ekologik jihatdan xavfsiz va samarali modda sifatida oʻrganilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kimyo sanoatining zamonaviy tarmoqlarida yangi avlod materiallari, ayniqsa biologik faol moddalarga asoslangan kompleks birikmalar ishlab chiqarish boʻyicha izchil rivojlanish kuzatilmoqda. Mahalliy xomashyolardan foydalangan holda sanoatni ilmiy asoslangan boshqaruv tizimi bilan uygʻunlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida ham salmoqli ishlar olib borilmoqda. 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli farmoni (“Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi”)[1] da iqtisodiy rivojlanishning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlarni yaratish vazifasi ilgari surilgan. Shu nuqtai nazardan, 3d-metall ionlari ishtirokida vitaminlar va aminokislotalar asosida kompleks birikmalarni yaratish biologik faol ozuqa qoʻshimchalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni va 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yoʻnalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sogʻlomlashtirish, yuqori qoʻshilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” toʻgʻrisidagi Farmoni

tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu sohalarga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiyadagi tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga kelib tarkibida bir va undan ortiq aminoguruh hamda karboksil guruh saqlagan halqali yoki ochiq zanjirli tuzilishga ega bo‘lgan biofaol ligandlarning kompleks birikmalari sintezi, tarkibi va tuzilishi, biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalari jadal tadqiq etilmoqda. Shu jumladan, xorijda Centeno M.M., Martínez J.D., Araujo M.L., Brito F., Del Carpio E., Hernández L., va Lubes V.R., kabi olimlar nikel (II) tuzlarining pikolin kislotasi va aminokislotalar ishtirokidagi aralash ligandli komplekslari sintez hamda tadqiq qilish borasida qator ishlar olib borgan. Metallarning aminokislotalar bilan kompleks birikmalari sintezi bilan Ganguly R., Sreenivasulu B., Vittal J.J. kabi olimlar, Kebets A.P., Kebets N.M., Egorov S.V. va Bogatyrev A.A. lar esa temirning riboflavin va aminokislotalar bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini sintezi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan. Yablonskaya E.K., Kosyanok N.E., Onbysh T.E., Xlyustova O.P., Gorb E.N. kabi olimlar tomonidan ham ayrim 3d-metallarning metionin va vitamin B_5 bilan bir qancha kompleks birikmalarini sintez qilingan va tarkibi hamda tuzulishi yuzasidan bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan.

Yurtimizda ham kompleks birikmalarning sintezi, tarkibi va tuzilishlari, fizik kimyoviy xossalari hamda amaliyotga joriy qilinishi bo‘yicha akademiklar Parpiyev N.A., Ibragimov B.T., professorlardan Sharipov X.T., Turayev X.X., Umarov B.B., Shabilolov A.A., Azizov T.A., Xakimov X.X., Xodjayev O.F., Kadirova Sh.A., Daminova Sh.Sh., Kadirova Z.Ch., Ashurov J.M., Kasimov Sh.A. hamda Ibragimov A.B. va ularning shogirdlari tomonidan salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Adabiyotlar tahlili ma’lumotlariga ko‘ra vitaminlar va aminokislotalar asosidagi kompleks birikmalarning sintezi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning tuzilishlari va xossalari yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Shu sababli, Co(II), Ni(II) Cu(II) va Zn(II) ionlarining vitaminlar (tiamin va askorbin kislotasi) va almashinmaydigan aminokislotalar (sistein va metionin) bilan aralash ligandli kompleks birikmalarni sintez qilish hamda fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish va ulardan biostimulyatorlar sifatida foydalanish alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedrasining “Noorganik moddalar–koordinatsion birikmalar sintezi, tuzilishi, reaksiyaga kirishish qobiliyati va ularning ekosistema diagnostikasi uchun tatbiq qilish” mavzusidan ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ba’zi 3d-metallarining (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II)) ayrim vitaminlar va aminokislotalar bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi, xossalari va qo‘llanilishini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) tuzlarining vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislota (sistein, metionin) lar bilan aralash ligandli kompleks birikmalarini sintez qilish uchun maqbul sharoitlarni aniqlash;

3d-metallarning vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan komplekslarning elektron tuzilishi, energetik va geometirik parametrlari hamda reaksion qobiliyatlarini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida hisoblash;

olingan kompleks birikmalarda ligandlarning markaziy atom bilan bog‘lanish qonuniyatlari, bog‘ tabiati va ligandlarning dentatlik xossalarini fizik kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlash;

kompleks birikmalarning fizik kimyoviy xossalari hamda barqarorlik konstantalarini aniqlash;

olingan kompleks birikmalarning biologik xossalarini tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti sifatida 3d-metall Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) tuzlari, vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) metallarning vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan kompleks hosil qilish jarayoni qonuniyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning usullari. Sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini tadqiq etishda SEM-EDS, elektron yutilish spektroskopiyasi, diffuz qaytarishning elektron spektroskopiyasi, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), infraqizil spektroskopiya (IQ), Raman spektroskopiya, differensial-termik analiz (DTA), ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC-YaMR va HMBC-YaMR, statsionar lyuminestsensiya analizi usullaridan hamda ChemDraw, Hisoblashlar Gaussian 09 hamda HyperChem dasturlari asosida, yarim empirik va zichlik funksional nazariyasi (DFT) metodlari kabi hisoblash dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Co(II), Ni(II), Zn(II), Cu(II) tuzlarining vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan aralash ligandli 28 ta yangi komplekslar sintez qilingan, aralash ligandli kompleks birikmalar sintezi uchun optimal sharoitlar tanlangan;

sintez qilingan gomoligandli va geteroligandli komplekslarning HOMO-LUMO energiyalarining farqiga asoslanib gomoligandli komplekslarning barqarorligi Co(II)-Cu(II)-Ni(II) tartibda hamda geteroligandli komplekslarning barqarorligi Co(II)-Ni(II)-Cu(II) tartibda ortib borishi, reaksion qobiliyati esa ikkala xil komplekslarda ham ushbu ketma-ketlikda kamayib borishi aniqlangan;

sintez qilingan komplekslarning diffuz qaytarishning elektron spektroskopiya va rentgen difraksiyasi (XRD) natijalariga ko‘ra, nikel va kobalt komplekslari O_h, mis va rux komplekslari esa T_d nuqtali guruhga mansub ekanligi aniqlangan;

IQ, Raman, ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC-YaMR va HMBC-YaMR spektrlar asosida ligandlarning koordinatsiyalangan markazlari o‘rganilib, aminokislotalar va (karboksil va tiol/amin guruhi orqali), askorbin kislotasi bidentant (3-OH va karbonil guruhi orqali), tiamin esa monodentant (2-OH guruhi orqali) koordinatsiyaga uchrashi aniqlangan;

sintez qilinagan kompleks birikmalarning termik va barqarorlik konstantalari metallar tabiatiga bog‘liqligi hamda komplekslarning termik parchalanishi bosqichma-bosqich borishi aniqlandi. Shuningdek kompleks birikmalarning barqarorlik konstantalari Co(II) < Ni(II) < Cu(II) ketma-ketlikda ortib borishi tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

biofaol kompleks birikmalarini sintez qilishning maqbul sharoitlari tanlandi;

sintez qilingan yangi kompleks birikmalarning biologik faolliklari (foydali bakteriyalarda, parrandalarda) va toksikologik xossalari nazariy hamda amaliy o‘rganilgan. Bunga ko‘ra sinov uchun olingan parrandalarda tirik vazn ortishi 14,2 % ga ortishi, ozuqa sarfi 16,3 % ga kamayganligi hamda vitamin B_1 tarkibli komplekslari vitamin C tarkibli komplekslarga nisbatan 1,5 barobar samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. 3d-metall tuzlarining vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, molekulyar tuzilishlari elektron yutilish spektroskopiyasi, diffuz qaytarishning elektron spektri, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), infraqizil spektroskopiya (IQ), Raman spektroskopiya, differensial-termik analiz (DTA), ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC-YaMR va HMBC-YaMR, SEM-EDS, statsionar lyuminestsensiya usullari yordamida aniqlanganligi, kvant-kimyoviy hisoblash orqali olingan natijalar tajriba natijalariga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati ba’zi 3d-metall tuzlari (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II)) ning ayrim vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan aralash ligandli yangi kompleks birikmalar sintezi qilish hamda sintez jarayonlari uchun maqbul sharoitlar (erituvchi, temperatura, vaqt va eritma muhiti (pH)) tanlash, sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishini, turli fizik-kimyoviy xossalari elektron yutilish spektroskopiyasi, diffuz qaytarishning elektron spektroskopiyasi, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), infraqizil spektroskopiyasi (IQ), Raman spektroskopiyasi, differensial-termik analiz (DTA), ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC-YaMR va HMBC-YaMR, statsionar lyuminestsensiya usullari, zamonaviy kvant kimyoviy usullari hamda Jobning “izomoliyar seriyalar” usuli orqali komplekslarning barqarorlik konstantalari hisoblanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, 3d-metallarning vitaminlar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) ishtirokidagi biofaol kompleks birikmalarning biologik xossalari parrandalar hamda foydali bakteriyalarda sinovlardan o‘tkazilib parrandalar, foydali bakteriyalarning mahsuldorligiga, ozuqa samaradorligiga, immun tizimlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ba’zi 3d-metallarining ayrim vitaminlar va aminokislotalar ishtirokidagi aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi, fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolligini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

[$Ni(Cys)(B_1)(H_2O)_2$] tarkibli aralash ligandli kompleks birikmasi, “Integra DD” MCHJ O‘zbekiston-Bolgariya qo‘shma korxonasining mikrobiologiya laboratoriyasida aktinomitsit hujayralarining rivojlanishi va mahsuldorligini oshirish maqsadida amaliyotga joriy etilgan (Integra DD” MCHJ ning 2023-yil 9-noyabrdagi 133-sonli ma’lumotnomasi). Natijada aktinomitsit hujayralarini rivojlantiruvchi vositalar olish imkoniyatini bergan.

[$Co(Cys)(B_1)(H_2O)_2$] tarkibli aralash ligandli kompleks birikmasi, “Integra DD” MCHJ O‘zbekiston-Bolgariya qo‘shma korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarida biostimulyator sifatida amaliyotga joriy etilgan (Integra DD” MCHJ ning 2023-yil 13-dekabrdagi 152-sonli ma’lumotnomasi). Natijada foydali bakteriyalarni rivojlantiruvchi vositalar olish imkoniyatini bergan.

Vitaminlar va aminokislotalar ishtirokidagi biofaol aralash ligandli kompleks birikmalar sintez usuli Xitoy xalq Respublikasi Xi’an universiteti Arxitektura va texnologiyasi ilmiy laboratoriyasida yangi birikmalar sintez va tadqiq qilishda foydalanilgan (2025-yil 14-maydagi xati). Natijada, ushbu pereparatlardan biokatalizatorlar sifatida foydalanish imkoniyatini bergan.

Sintez qilingan vitaminlar va aminokislotalar ishtirokidagi biofaol aralash ligandli kompleks birikmalari Germaniya Federativ Respublikasi Berlin Texnologiya universitetining ilmiy laboratoriyasida yangi birikmalar sintez qilish loihasida foydalanilgan (2025-yil 16-maydagi xati). Natijada, ushbu pereparatlardan biokatalizatorlar sifatida foydalanish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot ishi natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta Scopuc bazasida indeksatsiyalanadigan jurnalda, 4 ta ilmiy maqola Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Aminokislotalar va vitaminlar ishtirokida kompleks birikmalar sintezining zamonaviy holati”** deb nomlangan birinchi bobida ligandlarning molekulyar va elektron tuzilishi, xossalari va ishlatilishi bayon qilingan. Shuningdek vitaminlar va aminokislotalar asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari hamda fizik-kimyoviy va biologik xossalari bo‘yicha adabiyotlar batafsil tahlil qilingan. Adabiyot tahlillari natijasida tanlab olingan ligandlarning tabiati hamda metall atomlari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Aminokislotalar va vitaminlarning mis (II), rux (II), nikel (II), kobalt (II) tuzlari ishtirokidagi kompleks birikmalari sintezi hamda kerakli reaktivlar va asbob uskunalar”** deb nomlangan ikkinchi bobida olib borilgan tadqiqot doirasida foydalanilgan asboblar, tadqiqot usullari va olingan kompleks birikmalarning sintez jarayoni keltirilgan. Shuningdek kompleks birikmalarni sintez qilish uchun optimal sharoitlar (τ, T. pH) keltirilgan hamda reaksion sxemalar bilan ifodalangan.

3d-metallarning vitaminalar (tiamin, askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) bilan komplekslar hosil qilishi bir qancha adabiyotlardan o‘rganilib, sintez qilish uchun maqbul sharoitlar tanlab olindi. Tanlangan sharoitlar asosida nikel, kobalt, mis hamda rux ionlarining vitaminalar (tiamin,askorbin kislotasi) va aminokislotalar (sistein, metionin) kabi ligandlar bilan o‘zaro reaksiyaga kirishib kompleks birikmalar hosil bo‘lishi hamda ularni ajratib olish usullari adabiyotlardan o‘rganilib, ba’zi o‘zgartirishlar kiritilgan holda sintez sxemalari taklif qilindi.



1-sxema. Nikel (II) va kobalt (II) komplekslarining hosil bo‘lishi



2-sxema. Mis (II) va rux (II) komplekslarining hosil bo‘lishi

Sintez uchun olingan metall tuzlari reaksiya davomida gidrolizlanib $M(OH)_2$ holatda cho‘kma hosil qilib qolishini hamda ligandlarning protonlanish va deprotonlanish holatlarini oldini olish maqsadida barcha sintez qilish jarayonlarida eritmaning pH qiymati kuchsiz kislotali yoki kuchsiz ishqoriy sharoitlarda olib borildi. Sintez jarayonlari asosan 30-65^{0}C oralig‘ida 30-120 minut davomida termik aralshtirgich yordamida olib borildi. Sintez jarayonlari natijasida metall tuzlari va ligandlar 1:1:1: nisbatlarda reaksiyaga kirishishi optimal nisbat ekanligi xulosa qilindi.

Dissertatsiyaning **“Sintez qilingan kompleks birikmalarni turli fizik-kimyoviy usullar bilan tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida vitaminalar (*B_1, A.S.K.*) va aminokislotalar (*Cys, Met*) ning Co(II), Ni(II), Zn(II), Cu(II) tuzlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning strukturaviy va energetik xarakteristikalarini kvant kimyoviy taxlillari, diffuz qaytarilish spektroskopiyasi infara qizil va Raman spektroskopiyalari, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), differensial-termik analiz (DTA), ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC-YaMR va HMBC-YaMR analiz usullari asosida strukturaviy tuzilishlari aniqlanib sintez qilingan kompleks birikmalarning koordinatsiyalanish qonuniyatlari tahlil qilingan.



1-rasm. [*$Co(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)(H_2O)_2$*] tarkibli kompleksning erkin ligandlar bilan taqqoslangan IQ spektri



2-rasm. [*$Co(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)(H_2O)_2$*] tarkibli kompleksning Raman spektri

Sintez qilingan aralash ligandli kompleksning IQ spektrini ligandlarning IQ-spektri bilan solishtirish natijasida erkin sistein molekulasida tiol guruhiga xos cho‘qqi 2586 cm^{-1} da aniq ifodalangan. Kompleks spektrida bu cho‘qqi 2357 cm^{-1} ga siljigan va intensivligi sezilarli darajada kamaygan. Tiol guruhining spektral siljishi koordinatsiyaga bog‘liq bo‘lgan elektron zichligi o‘zgarishi bilan izohlanadi. Sisteinning karboksil guruhiga mos C=O tebranishi erkin holatda 1720 cm^{-1} da kuzatiladi, kompleksda bu cho‘qqi yo‘qolib, uning o‘rniga 1655 cm^{-1} da kengroq va intensiv cho‘qqi paydo bo‘lgan. Bu karboksil guruhining deprotonlanishi –COO^- holatiga o‘tganini va kislorod atomi orqali Co(II) bilan ion bog‘lanishini bildiradi. Karboksilat guruhining assimetirik tebranishi aynan 1655 cm^{-1} atrofida joylashadi, bu koordinatsiyani aniq tasdiqlaydi. Erkin askorbin kislota halqasidagi karbonil (C=O) tebranishi 1752 cm^{-1} da joylashgan bo‘lsa, kompleksda bu cho‘qqi 1655 cm^{-1} da kuzatiladi. Bu esa karbonil kislorodi orqali donor-akseptor koordinatsiyasi yuz berganini ko‘rsatadi. Bunda elektron zichligi kamayishi bilan karbonil tebranish chastotasi pasayadi. Shuningdek, kompleks spektrida 3500–3300 cm⁻¹ oralig‘ida keng cho‘qqilar kuzatiladi, bu esa askorbin kislotadagi OH guruhlari va kompleksdagi koordinatsiyalangan suv molekulalari ta’siri natijasida hosil bo‘lgan vodorod bog‘lari bilan izohlanadi.

[*$Co(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)(H_2O)_2$*] tarkibli kompleksning Raman spektrida 305 cm⁻¹ sohadagi Co–S bog‘ining valent tebranishi, sisteinning tiol (–SH) guruhi orqali kobalt ioniga koordinatsiyalanganligini bildiradi. Spektrning 395 cm⁻¹ sohasida Co–O bog‘ining valent tebranishi bu ligandlarning kislorod orqali kobalt bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Spektrning 510–615 cm⁻¹ (bir nechta yaqqol cho‘qqilar) sohalarida C–S, C–C va halqning deformatsion tebranishlariga tegishli cho‘qqilar mavjud. Ayniqsa, 560–610 cm⁻¹ soha oraliqdagi intensiv cho‘qqilar sistein va askorbin kislotaning molekulyar skeletidagi bog‘lanishlarga to‘g‘ri keladi. 1620 cm⁻¹ soha (kuchli va aniq cho‘qqi) koordinatsiyalangan suv molekulalaridagi H–O–H tebranishiga mos keladi. Demak, kompleks tarkibida suv molekulasi ishtirok etmoqda.

Ayni tadqiqot uchun sintez qilingan kobaltning sistein va askorbin kislotasi bilan aralash ligandli birikmasining termogravimetirik (TG) va differensial termogravimetirik (DTG) tahlillari o‘tkazildi. Kompleksning termik parchalanishi 0–700 °C oralig‘ida o‘rganildi. Dastlabki bosqich temperatura oralig‘i 30–150 °C va massa yo‘qotilishi 2,0 mg (9,1%) ekanligi aniqlandi. Bu bosqichda kompleks tarkibidagi adsorbsiyalangan va koordinatsiyalangan suv molekulalari chiqib ketganidan dalolat beradi. Keyingi bosqichda temperatura oralig‘i 150–320 °C va massa yo‘qotilishi 6,0 mg (27%) kuzatildi.



3-rasm. [*$Co(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)(H_2O)_2$*] tarkibli kompleksning umumiy derivatogrammasi

Ushbu bosqich organik ligandlar parchalana boshlaganligidan dalolat beradi. Keyingi bosqich temperatura oralig‘i 320-480 °C da sodir bo‘ldi va massa yo‘qotilishi 7,0 mg (31,8%) teng, bu bosqichda ham liganlar parchalanadi. 480-600 °C oralig‘ida qolgan barcha organik qoldiqlar to‘liq oksidlanadi va termoliz mahsuloti sifatida metall oksidi hosil bo‘ladi.

Sintez uchun olingan ligandlarning metall ioniga koordinatsiyaga uchragan funksional guruhlarini hamda mavjud vodorod va uglerod atomlarini aniqlash maqsadida kompleks birikmalardan ^{1}H va ^{13}C-YaMR hamda ikki o‘lchamli YaMR

(HSQC-YaMR va HMBC-YaMR) analizlari o‘tkazildi. YaMR spektrlari deytrili piridin va deytrili atseton erituvchilarida olib borildi. Kompleks tarkibidagi askorbin kislota molekulasida jami 6 ta uglerod atomi borligi ma’lumligini inobatga olgan holda 4-rasmda keltirilgan spektrdan har bir uglerodga tegishli bo‘lgan kimyoviy siljishlar topib chiqildi. Askorbin kislota molekulasidagi 1, 2, 3, 4, 5, 6-uglerod atomlarining ^{13}C-YaMR kimyoviy siljishlari mos ravishda quyidagilarni tashkil qiladi 174,09, 156.17, 109,04, 77,94, 76,37, 72,45 m.b.u., ligand sifatida olingan sistein molekulasida esa jami 3 ta uglerod atomi mavjud va ularning kimyoviy siljishlari quyidagilarni tashkil qiladi 176,48, 65,17 m.b.u. (4-rasm).



4-rasm. [*Zn(Cys)(A.S.K.)*] tarkibli kompleks birikmaning deyteriyli piridin eritmasidagi ^{1}H-YaMR –spektri



5-rasm. [*Zn(Cys)(A.S.K.)*] tarkibli kompleks birikmaning deyteriyli piridin eritmasidagi ^{13}C-YaMR-spektri

[$Zn(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)$] tarkibli kompleks birikma HSQC-YaMR spektrining (6-rasm) sistein molekulasi ^{13}C-YaMR spektridagi kimyoviy siljishi δ = 65,17 m.b.u. bo‘lgan 2-uglerod atomiga tegishli signal, proton spektridagi δ =5,01 signalga mos keladi. Bundan aynan 2-uglerod atomi shu vodorod atomi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan ekanligini bildiradi. Askorbin kislota molekulasidagi xuddi shunday δ = 72,45 m.b.u. ga ega bo‘lgan 6-uglerodga tegishli signal, proton spektridagi δ = 4,6 m.b.u., 5-uglerod atomining signali δ = 76,37 m.b.u., kimyoviy siljishi δ = 4,67 m.b.u. proton spektri bilan va kimyoviy siljishlari δ = 77,94 m.b.u. bo‘lgan 4-uglerod atomiga tegishli bo‘lgan signal, proton spektridagi δ = 5,42 m.b.u. proton signaliga mos keladi. Demak shu uglerod atomi bir bog‘ masofada proton bilan bog‘langanligini ko‘rishimiz mumkin.

Askorbin kislota molekulasidagi kimyoviy siljishi δ = 77,94 m.b.u. 4-uglerod atomining 7-rasmdagi o‘zidan 3 bog‘ uzoqlikda joylashgan kimyoviy siljishi δ = 9,10 m.b.u. bo‘lgan 2-uglerod atomiga tegishli OH-funksional guruhidagi proton spektri, kimyoviy siljishi δ = 109,03 m.b.u. 3-uglerod atomi o‘zidan 3 bog‘ uzoqlikda joylashgan kimyoviy siljishi δ = 9,10 m.b.u. bo‘lgan 2-uglerod atomiga tegishli OH-funksional guruhidagi proton spektri hamda kimyoviy siljishi δ = 156,17 m.b.u. 2-uglerod atomi o‘zidan 2 bog‘ uzoqlikda joylashgan kimyoviy siljishi δ = 9,10 m.b.u. bo‘lgan 2-uglerod atomiga tegishli OH-funksional guruhidagi proton spektri kross cho‘qqiga ega ekanligi aniq ko‘rinib turibdi, lekin o‘zidan uch bog‘ uzoqlikda joylashgan 2-uglerod atomi 3-uglerod atomidagi OH-funksional guruhiga tegishli proton bilan o‘zaro tasiri yo‘qligi qolaversa 3/3-OH tasirlashuvning yo‘qligi hisobiga shuni xulosa qilib ayta olamizki molekula tarkibda 3-OH funksianal guruhidagi vodorod atomini metall atomi bilan ion bog‘lanish hosil qilgan.



6-rasm. [*Zn(Cys)(A.S.K.)*] tarkibli kompleks birikma deyteriyli piridin eritmasdagi HSQC-YaMR spektri



7-rasm. [*Zn(Cys)(A.S.K.)*] tarkibli kompleks birikmaning deyt.riyli piridin eritmasdagi HMBC-YaMR spektri

Sistein molekulasidagi kimyoviy siljishi 176,48 m.b.u. 1-uglerod atomi bilan kimyoviy siljishi 5,00 m.b.u. va 3,06 m.b.u. bo‘lgan 2 va 3-uglerod atomlarining protoni o‘rtasida kross cho‘qqining mavjudligi hamda sistein molekulasidagi karboksil guruhidagi vodorod atomi hisobiga metall atomi bilan ion bog‘lanish tiol guruhi hisobiga esa donor akseptor bog‘lanishi yuzaga kelgan deb xulosa qilishimiz mumkin.

YaMR spektrini o‘rganish davomida faqatgina diamagnit kompleks birikmalarda YaMR spektrlari olish mumkinligi, paramagnit komplekslarda markaziy atomning magnit xossasi spektral jarayonlarga ta’sir qilib spektr chiziqlari chiqmasligi shuningdek spektr chiziqlari juda keng yani tanib bo‘lmaydigan chiziqlar hosil bo‘lishi mumkinligi haqida xulosalar chiqarildi.



Parametrlar	[*Cu(Cys)(A.S.K.)*]
a, Å	10,37
b, Å	10,39
c, Å	10,4
α, ^{0}	109,3
β, ^{0}	109,5
γ, ^{0}	109,7
V, $Å^3$	1115,4
F.G.	F-43m
Geometrik tuzilish	Tetraedr

8-rasm. [*$Cu(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)$*] kompleksning difraktogrammasi

Sintez qilingan kompleks birikmalarning kristall tuzulishlari hamda bog‘ parametrlarini tushuntirish maqsadida kukun rentgen difraksiyasi (XRD) tahlili o‘tkazildi. Sintez qilingan kompleks birikmalarning difraktogrammasida mos Breg burchaklarida cho‘qqilar paydo bo‘ldi, bu esa kompleksning kristall strukturasini va o‘lchamlarini aniqlash imkonini beradi. Komplekslarning difraktogrammasidan kompleksning kristall fazalari va kristallik darajasi aniqandi. $[Cu(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)]$ tarkibli kompleksning difraktogrammasida Cu (II) kompleks strukturasiga xos bo‘lgan asosiy cho‘qqilarni 8-rasmda ko‘rish mumkin. Ushbu usulda o‘lchashlar xona haroratida hamda difraksiya burchagi (2θ) 5^0 dan 70^0 gacha qadamli rejimda skanerlandi.



9-rasm. $[Cu(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)]$ kompleksning kristall parametrlari ko‘rinishi

$[Cu(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)]$ tarkibli kompleksning kristall tuzulishi tetraedrik holatda bo‘lib, fazoviy guruhi F-43m. Panjara birliklari α=10,37 Ǻ, *b*=10,39 Ǻ, *c*=10,4 Ǻ teng bo‘lib, zichligi *p*=1,49 g/sm^3 ga teng. Burchaklari α=109,3^0, β=109,5^0, γ=109,7^0. $[Cu(C_3H_6NO_2S)(C_6H_7O_6)]$ tarkibli kompleksning kristallik darajasi hisoblanganda 44,77% kristall va 55,23% amorf tuzilishga ega ekanligi aniqlandi (8,9-rasmlar).



Parametrlar	$[Ni(Cys)(B_1)(H_2O)_3]$
a, Å	22,11
b, Å	15,63
c, Å	18,42
α, ^{0}	89
β, ^{0}	91,64
γ, ^{0}	100,2
V, Å^3	7645,1
F.G.	B_1
Geometrik tuzilish	Oktaedr

10-rasm. $[Ni(C_3H_6NO_2S)(C_{12}H_{16}N_4OS)(H_2O)_3]$ kompleksning dfraktogrammasi

$[Ni(C_3H_6NO_2S)(C_{12}H_{16}N_4OS)(H_2O)_3]$ tarkibli kompleksning kristall tuzilishi oktaedrik bo‘lib, fazoviy guruhi B_1,. panjara birliklari α=22,11 Ǻ, *b*=15,63 Ǻ, *c*=18,42 Ǻ teng bo‘lib, zichligi *p*=0,216 g/sm^3 ga teng. Burchaklar α=89^0, β=91,64^0, γ=100,2^0 (10-rasm).

Rentgen difiraksiyasi tadqiqotlari $[Ni(C_3H_6NO_2S)(C_{12}H_{16}N_4OS)(H_2O)_3]$ kompleksning 63,65% kristall va 36,35% amorf tuzilishga ega ekanligini ko‘satadi.

Ayni kompleksning kristallik darajasi taklif qilinayotgan sintez usuli, bu kabi komplekslar olish uchun mos kelishini tasdiqlaydi (10,11-rasmlar).



11-rasm. *[Ni(Cys)(B$_1$)(H$_2$O)$_3$]* kompleksning kristall parametrlari ko‘rinishi

Qattiq holatdagi komplekslarning optik xossalarini o‘rganish hamda markaziy atomlardagi *d-d* o‘tishlarni tavsiflash maqsadida sintez qiligan komplekslarda diffuz qaytarish elektron spektrlari olindi va tahlil qilindi.



12-rasm.
[*Ni(C$_3$H$_6$NO$_2$S)(C$_{12}$H$_{16}$N$_4$OS)(H$_2$O)$_3$*] tarkibli kompleks birikmaning diffuz qaytarish elektron spektri



13-rasm.
[*Co(C$_3$H$_6$NO$_2$S)(C$_6$H$_7$O$_6$)(H$_2$O)$_2$*] tarkibli kompleks birikmaning diffuz qaytarish elektron spektri

1-jadval

[*Ni(Cys)(B$_1$)(H$_2$O)$_3$*], [*Co(Cys)(A.S.K.)(H$_2$O)$_2$*] va *[Cu(C$_3$H$_6$NO$_2$S)(C$_6$H$_7$O$_6$)]* komplekslarning D_q va Rak parametrlari

Kompleks birikma	Nuqtali guruh	Asosiy o‘tishlar			D_q	Rak parametri B
		ν_1	ν_2	ν_3		
[*Ni(Cys)(B$_1$)(H$_2$O)$_3$*]	O_h	12437 $^3A_{2g}\rightarrow{}^3T_{2g}$ (F)	13812 $^3A_{2g}\rightarrow{}^3T_{1g}$ (F)	19157 $^3A_{2g}\rightarrow{}^3T_{1g}$ (P)	1244 cm^{-1}	888 cm^{-1}
[*Co(Cys)(A.S.K.)(H$_2$O)$_2$*]	O_h	12360 $^4T_{1g}\rightarrow{}^4T_{2g}$ (F)	13568 $^4T_{1g}\rightarrow{}^4A_{2g}$ (F)	15822 $^4T_{1g}\rightarrow{}^4T_{1g}$ (P)	1260 cm^{-1}	644 cm^{-1}
[*Cu(Cys)(A.S.K.)*]	T_d	15770 $^2T_2\rightarrow{}^2E$	24570 $^2T_2\rightarrow{}^2T_1$ (F)	32051 $^2T_2\rightarrow{}^2T_1$ (P)	1577 cm^{-1}	587 cm^{-1}

Kompleks birikmalarning diffuz qaytarishni elektron spektroskopik tahlili asosida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, [*Ni(Cys)(B$_1$)(H$_2$O)$_3$*] va [*Co(Cys)(A.S.K.)(H$_2$O)$_2$*] tarkibli metall komplekslar (12,13-rasmlar) da markaziy atomning koordinatsion soni 6 ga teng va bu oktaedr tuzilishiga mos keladi.

Hisoblab topilgan Rak parametrlari ham komplekslar oktaedr tuzilishga mos ekanligini ko‘rsatdi. [*Cu(Cys)(A.S.K.)*] tarkibli metallkompleksda markaziy atomning koordinatsion soni 4 ga teng va bu tetraedr tuzilishiga mos keladi. Hisoblab topilgan Rak parametrlari ham komplekslar poliedri tetraedr tuzilishida ekanligidan dalolat beradi. [$Zn(Cys)(B_1)H_2O$] tarkibli kompleksda markaziy atomning d qavati to‘lganigi hisobiga markaziy atomda *d-d* o‘tishlar kuzatilmadi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning barqarorlik konstantalarini aniqlashda Jobning “izomolyar seriyalar” usulidan foydalanildi. (14, 15-rasmlar, 2-jadval)Hisoblashlar “OriginPro 2019b” dasturida olib borildi.



14-rasm.
Ni^{2+} ning 2 xil ligandli turli tarkibli kompleks birikmalar yutilish spektri



15-rasm.
$Ni/Cys/B_1$ tarkibli kompleks uchun optik zichlikning dastlabki moddalar konsentratsiyasiga bog‘liqligi grafigi

2-jadval

Kompleks birikmalarning barqarorlik konstantalari

№	Komplekslar	Kf (M^{-2})
1	[$Cu(Cys)(B_1)(H_2O)$]	2.24×10^8
2	[$Ni(Cys)(B_1)3H_2O$]	2.07×10^8
3	[$Co(Cys)(B_1)3H_2O$]	1.98×10^8

Kompleks birikmaning barqarorlik konstantasini aniqlash uchun turli izomolyar seriyalar usulidan foydalanildi va buning uchun Ni^{2+} va 2 xil ligandlarning mol ulushuni o‘zgartirib, turli tarkibli komplekslar o‘rganildi. Yuqoridagi tajribalar shuni ko‘rsatdiki sintez qilingan aralash ligandli kompleks birikmalarning barqarorlik konstantalari Co(II) < Ni(II) < Cu(II) tartibda ortib borishi aniqlandi. Bu Irving–villiams qatori qonuniyatlariga mos kelganligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Sintez qilingan kompleks birikmalarning biologik xossalari tahlili”** deb nomlangan **to‘rtinchi bobida** komplekslarning biologik xossalarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan amaliy va nazariy ma’lumotlar tahlili keltirilgan. Jumladan, komplekslarning lyuminestsentsiya xossalari, nazariy hisoblashlardan molekuliyar doking va pass onlayin, amaliy sinashlardan bakteriyalarga ta'siri va parrandalarga tasiri oʻrganilgan.

Lyuminestsentsiya xossasiga ega moddalar tibbiyotda diagnostika, biomarkerlash, dorilar taqsimotini kuzatish va onkologik kasalliklarni aniqlashda keng qoʻllaniladi. Moddalarning hujayra ichiga kirib, ultrabinafsha (UV) yoki boshqa nurlanish ostida nurlanishi bilan ishlaydi. Masalan, FITC (fluorescein isothiocyanate), Rhodamine, Alexa Fluor — hujayra va toʻqimalarni belgilashda ishlatiladi. Immunofluorestsentsiya usulida organizmdagi maqsadli oqsillar yoki viruslar aniqlanadi.



16-rasm.
[$Cu(Cys)(B_1)(H_2O)$] tarkibli kompleks birikmaning lyuminestsent spektri



17-rasm.
[$Co(Cys)(B_1)(H_2O)_3$] tarkibli kompleks birikmaning lyuminestsent spektri

Misning sistein va tiamin ishtirokidagi aralash ligandli kompleks birikmasining lyuminestsentsiya analizi bilan tasvirlangan. Kompleksning fotolyuminestsentsiya spektrida ikkita alohida yutilish (ekscitatsiya) chiziqlari kuzatiladi. Ulardan biri 350 nm sohada joylashib, ligand ichki elektron oʻtishlariga ($\pi \rightarrow \pi$ yoki $n \rightarrow \pi$) mos keladi, ikkinchisi esa 480 nm atrofida boʻlib, bu metall-ligand zaryad koʻchishiga (MLCT – metal-to-ligand charge transfer) bogʻliqdir (16-rasm). Kobalt (II) kompleksi spektrining sariq hududida yorqin lyuminestsentsga ega (17-rasm) Kobalt (II) kompleksning qoʻzgʻalish spektrida ikkita maksimum koʻrinadi: 350 nm va 470 nm. Tiamin va sisteinning Cu, Zn, Ni, Co metallari bilan sintez qilingan aralash ligandli kompleks birikmalardagi natijasiga koʻra fotolyuminestsent analiz aralash ligandli Cu(II) va Co(II) li komplekslarda fotolyuminestsentsiya hodisasi kuzatildi, Zn va Ni ishtirokidagi kompleks birikmalarda esa ushbu hodisa kuzatilmadi.

Sintez qilingan kompleks birikmalarning MurA fermenti bilan bogʻlanish qobiliyati molekulyar doking yondashuvi orqali oʻrganildi. Maqsad – sintez qilingan kompleks birikmalarning foydali bakteriyalarga zarar yetkazmasdan, patogen bakteriyalar faoliyatini ingibirlash potensialini aniqlash. Quyidagi bakteriyalarning MurA fermentlari tanlandi: *Escherichia coli* – PDB ID: 3KQJ (foydali bakteriya) va *Staphylococcus aureus* – PDB ID: 6PL6 (patogen bakteriya). Doking hisoblashlari CB-Dock2 onlayn vositasi (http://cadd.zju.edu.cn/cb-dock2/) yordamida amalga oshirildi. Ushbu platforma AutoDock Vina algoritmiga asoslangan bo‘lib, oqsildagi aktiv markazlarni avtomatik aniqlaydi va optimal bog‘lanish energiyalarini hisoblaydi (18-rasm). O‘tkazilgan doking tahlillari shuni ko‘rsatadiki, metallorganik komplekslar, ayniqsa [Zn(Cys)(B_1)(H_2O)]-kompleksi, patogen bakteriya (*S. aureus*) MurA fermenti bilan ancha (-8,6 kk/kal) kuchli bog‘lanadi. Foydali bakteriya (*E. coli*) bilan bog‘lanish energiyasi nisbatan yuqori (-5,8 kk/kal) bo‘lib, moddalarning bu bakteriyaga kam ta’sir qilish ehtimolini bildiradi (3-jadval).



18-rasm. Oqsillarning 3KQJ (chapda) va 6PL6 (o‘ngda) faol joyiga o‘rnatilgan nikelning kopmleksi

3-jadval

Tadqiq qilinayotgan kompleks birikmalarning oqsil molekulasi bilan bog‘lanish energiyalari (kkal/mol)

Oqsil	[*Co*(*Cys*)(*A.S.K.*)(H_2O)$_2$]	[*Ni*(*Cys*)(B_1)(H_2O)$_3$]	[*Zn*(*Cys*)(B_1)(H_2O)]
3KQJ	−5,7 kkal/mol	−5,9 kkal/mol	−5,8 kkal/mol
6PL6	−7,4 kkal/mol	−8,5 kkal/mol	−8,6 kkal/mol

Olingan kompleks birikmalarning zaharlilik darajalari nazariy hamda amaliy o‘rganildi. Way2 drug dasturiy ta’minoti yordamida o‘tkazilgan nazariy toksikologik baholash natijalariga ko‘ra, tadqiq qilinayotgan birikmalar kalamush organizmida nisbatan past zaharli ta’sir ko‘rsatib, *Co/Cys/A.S.K., Ni/Cys/*B_1*, Cu/Cys/A.S.K., Zn/Cys/*B_1 tarkibli aralash ligandli komplekslarning zaharlilik darajalari 4-5 sinflarga mansub ekanligi aniqlandi. Komplekslarning zaharlilik darajasi, Integra DD O‘zbekiston-Bolgariya qo‘shma korxonasining “Analitik-nazoratlar” laboratoriyasida amaliy sinovlardan o‘tkazildi. Bunga ko‘ra *Co/Cys/A.S.K., Ni/Cys/*B_1*, Cu/Cys/A.S.K., Zn/Cys/*B_1 tarkibli aralash ligandli komplekslar zaharli emasligi hamda *O‘z DSt 42 У3-000-2339-2021* talablariga mos ekanligi tasdiqlandi.

Parrandalarga ushbu preparatlarni qo‘llash bo‘yicha dastlabki tajribalar “Parranda mahsuldor chorvasi” parrandachilik fermasida 30 kun davomida 50 tadan tuxum qo‘yuvchi (leggorn) va go‘sht yo‘nalishidagi (broyler) parrandalarda harorat 30-37^{0}C temperaturada olib borildi. Sinovlar jarayonida preparatlar tirik vazniga 10 mg dozada qo‘llanildi. Ushbu preparatlar suvda eritilib, sinov uchun olingan parrandalarni oziqlantirish vaqtida ozuqa tarkibiga aralashtirilib berildi. Parrandalarning tuxum berish jarayoni va sarf harajatlari har kuni nazorat qilinib borildi. Tajribalar davomida sinov uchun olingan har ikkala zotli tovuqlarning patlari odatdagi tovuqlarnikiga qaraganda ko‘payishi va mustahkamlashganlini kuzatildi. Kompleksning miqdori oshirilishi bilan tuxumlar soni va parrandalarning og‘irliklari ortishi kuzatildi. Tiaminli kompleks birikmalar, askorbin kislotali kompleks birikmalarga nisbatdan 1,5 barobar samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

XULOSALAR

1. 3d-metallar (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II)) ning aminokislotalar (sistein va metionin) hamda vitaminlar (tiamin va askorbin kislotasi) bilan aralash ligandli kompleks birikmalar sintezi uchun maqbul sharoitlar (T= 30^0-65^0C, pH=6,5-7,5, τ=30-120 min) tanlandi. Sintez uchun olingan komponentlarning maqbul nisbatlari 1:1:1 ekanligi aniqlandi. Tajribalarda jami 28 ta yangi gomoligandli va geteroligandli komplekslar sintez qilindi.

2. Sintez qilingan gomoligandli va geteroligandli komplekslarning HOMO-LUMO energiyalarining farqiga asoslanib gomoligandli komplekslarning barqarorligi Co(II), Cu(II), Ni(II) tartibda hamda geteroligandli komplekslarning barqarorligi Co(II), Ni(II), Cu(II) tartibda ortib borishi, reaksion qobiliyati esa ikkala xil komplekslarda ham ushbu ketma-ketlikda kamayib borishi aniqlandi.

3. Sintez qilingan komplekslarning diffuz qaytarishning elektron spektroskopiya va rentgen difraksiyasi (XRD) natijalariga ko‘ra, nikel va kobalt komplekslari O_h, mis va rux komplekslari esa T_d nuqtali guruhlarga ega ekanligi aniqlandi. IQ, Raman, ^{1}H-YaMR, ^{13}C-YaMR, HSQC va HMBC spektrlar tahlili asosida ligandlarning koordinatsiya markazlari aminokislotalarda (karboksil va tiol/amin guruhi orqali) va askorbin kislotasida bidentant (3-OH va karbonil guruhi orqali), tiaminda esa monodentant (2-OH guruhi orqali) ekanligi aniqlandi.

4. Sintez qilinagan kompleks birikmalarning termik barqarorligi va barqarorlik konstantalari metallar tabiatiga bog‘liqligi hamda komplekslarning termik parchalanishi bosqichma-bosqich borishi aniqlandi. Shuningdek kompleks birikmalarning barqarorlik konstantalari Co(II) < Ni(II) < Cu(II) qatorida ortib borishi tasdiqlandi. Kompleks birikmalarning fotolyuminestsentsiya xossalari o‘rganda *Zn/Cys/*B_1 va *Ni/Cys/*B_1 tarkibli komplekslarda lyuminestsentsiya hodisasi kuzatilmadi, *Cu/Cys/*B_1 va *Co/Cys/*B_1 tarkibli kompleks birikmalarda lyuminestsentsiya hodisasi kuzatilib, ushbu birikmalardan biomarkerlar sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

5. Kompleks birikmalarning biologik xossalari parrandalar (“Parranda mahsuldor chorva” parrandachilik fermasi) hamda foydali bakteriyalar (Samarqand Integra DD O‘zbekiston-Bolgariya qo‘shma korxonasi va Samarqand viloyat SEO va JSB bakteriologik laboratoriyasi) da sinovlardan o‘tkazilib biologik faolliklari (foydali bakteriyalarda, parrandalarda) va toksikologik xossalari nazariy hamda amaliy o‘rganildi. Bunga ko‘ra sinov uchun olingan parrandalarda tirik vazn 14,2 % ga ortishi, ozuqa sarfi 16,3 % ga kamayganligi hamda vitamin B_1 tarkibli komplekslari vitamin C tarkibli komplekslarga nisbatan 1,5 barobar samarali ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

6. Sintez qilingan vitaminlar va aminokislotalar ishtirokidagi biofaol aralash ligandli kompleks birikmalar Berlin Texnologiya universiteti hamda Xitoy Xi’an universitetining Arxitektura va texnologiya ilmiy laboratoriyalarida yangi birikmalar sintez qilish loihalarida biokatalizatorlar sifatida foydalanildi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.K.01.03 FOR THE AWARD OF ACADEMIC DEGREES AT NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

BUVRAYEV ERALI RAVSHANOVICH

MIXED LIGAND COMPLEX COMPOUNDS OF SOME 3d-METALS WITH SOME VITAMINS AND AMINO ACIDS: SYNTHESIS, PROPERTIES, APPLICATIONS

02.00.01 – Inorganic Chemistry

DOCTOR OF PHILOSOPHY IN CHEMISTRY (PhD)
ABSTRACT OF THE DISSERTATION

Tashkent - 2025

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in chemical scineces is registered in the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2021.2.PhD/K386.

The dissertation was carried out at Natiaonal University of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation was posted in three (Uzbek, Russian, English (resume)) languages on the website of the Scientific Council at www.ispm.uz and on the website of "ZiyoNet" Information and Educational Portal at www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Kadirova Shakhnoza Abdukhalilovna** Doctor of Chemical Sciences, Professor
Official opponents:	**Kadirova Zukhra Chingizovna** Doctor of Chemical Sciences, Professor
	Ibodullova Mavjuda Ibodulloevna Candidate of Chemical Sciences, Associate Professor
Leading organization:	**Institute of General and Inorganic Chemistry**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council under the National University of Uzbekistan under the number DSc.03/30.12.2019.K.01.03 on August 23, 2025 at 10^30 am. (Address: 100174, Tashkent, Universitet St., 4. Tel: (998 71) 227-12-24; fax (+998 71) 246-53-21, (98 71) 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuuu.uz)

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of the National University of Uzbekistan (reistered with the number 126) Address: (100174, Tashkent, University street, 4th building, phone: (998 71) 227-12-24; fax (+998 71) 246-53-21, (98 71) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz.

The abstract of the dissertation was sent out " 12 " august 2025.
(distribution protocol № 18 dated " 11 " august 2025).

Z.A.Smanova
Chairman of the Academic Council,
Doctor of Philosophy, Professor

N.Kh.Kutlimurotova
Scientific Secretary of the Academic Council,
Doctor of Philosophy, Professor

Sh.Sh.Daminova
Chairman of the Scientific Seminar under the Academic Council, Doctor of Philosophy, Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD dissertation)

The relevance and importance of the dissertation title. In the world, preparations based on homoligand and heteroligand complex compounds with bioactive ligands are effectively used in medicine to treat various diseases, and in agriculture as biostimulants, fungicides and herbicides. Especially due to the phenomenon of synergism of complex compounds with vitamins and amino acids, they play an important role in obtaining drugs against oncological, infectious and inflammatory diseases in medicine. In particular, the synthesis of Co(II), Ni(II), Cu(II) and Zn(II) metal complexes synthesized in recent years is of great practical importance due to their selective binding to cancer cells and disruption of their life cycle.

The methods of synthesis of metal complexes, their chemical composition, molecular and spatial structures, coordination properties and binding mode with ligands, thermodynamic and kinetic laws of complex formation, changes in structure depending on reaction conditions, their spectroscopic, electrochemical and magnetic properties, modern methods for determining the crystal structure, as well as the biological activity and functional properties of complexes, their application in such fields as medicine, agriculture, materials science, and as environmentally safe and effective substances are of great scientific importance in the world.

In our republic, consistent development is observed in the modern branches of the chemical industry in the production of new generation materials, especially complex compounds based on biologically active substances. Significant work is also being carried out to harmonize the industry with a scientifically based management system using local raw materials and to ensure environmental safety. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 ("Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026")[2], adopted on January 28, 2022, sets out the task of creating high-value-added products through deep processing of local resources as one of the main directions of economic development. In this regard, the creation of complex compounds based on vitamins and amino acids with the participation of 3d-metal ions is of great importance in the development of biologically active food additives.

The results of the research in this dissertation will serve to a certain extent in implementing the tasks set out in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" and the Resolutions No. PQ-4805 dated August 12, 2020 "On measures to improve the quality of continuing education and the effectiveness of science in chemistry and biology", No. PQ-4992 dated February 13, 2021 "On measures to further reform and financial soundness of chemical industry enterprises, and develop the production of high-value-added chemical products" and other regulatory legal acts related to these areas.

[2] The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 ("Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026")

Relevance of the research to the priority areas of development of science and technology in the Republic. This research study was carried out in accordance with the VII. Priority Areas of the Republic for the Development of Science and Technology "Chemistry, Chemical Technologies and Nanotechnologies".

